



Yuldasheva Hadiyaxon

Farg'ona davlat universiteti

magistratura bo'limi

lingvistika: o'zbek tili yo'nalishi

II kurs magistrantii

Annotatsiya: Ushbu maqolada pragmalingvistika sohasining asosiy muammolari sifatida o'rganiladigan tagm'ano, eksplitsit va implitsit ma'no kabi tushunchalar haqida ayrim mulohazalar yoritilgan. Bu hodisalarning o'rganilish asoslari tadqiqotlari badiiy matndan olingan misollar orqali tahlil etilgan.

Kalit so'zlar: Fonopragmatik tahlil, eksplitsit va implitsit birliklar, pragmatika, tagma'no.

Annotation: In this article, some comments about the concepts such as meaning, explicit and implicit meaning, which are studied as the main problems of the field of pragmalinguistics.


Key words: phonopragmatic analysis, explicit and implicit units, pragmatics, meaning.

Tilshunoslik taraqqiyotining bugungi bosqichida kommunikativ munosabatlardan antroposentrik tamoyillar asosida o'rganilib, lisoniy hodisalar va ularning ifoda imkoniyatlari keng tadqiq etilmoqda. Tilshunoslikning matn lingvistikasi, pragmalingvistika, lingvokulturologiya, psixolingvistika, etnolingvistika, kognitiv tilshunoslik va boshqa yo'nalishlarida inson omili tadqiqot obyektiga aylanib bormoqda. Matn va undagi shaxs omilini chuqurroq o'rganishga alohida e'tibor qaratilmoqda.

Professor Sh.Safarov «pragmatika tilshunoslikning alohida sohasi bo'lib, unda muloqot jarayonida lisoniy birliklarni tanlab olish, ularni qo'llash hamda ushu qo'llanishdagi birliklarning muloqot ishtirokchilariga ta'siri masalalari o'rganiladi» deb izohlab, lingvistik pragmatikaning nutq subyekti, nutq obyekti, nutq vaziyati bilan bog'liq xususiy masalalarini belgilab beradi. Demak, pragmatik tilshunoslik tadqiq predmeti nutqiy akt nazariyasi, deyksis nazariyasi, diskurs nazariyasi, pragmasemantika, pragmstilestika kabi sohalarining shakllanishiga zamin yaratdi.

Bugun pragmalingvistika keng ma'noda tushuniladi. Bu haqda Yu.D.Apresyan⁸ pragmatika so'zlovchining voqelikka, xabarning tuzilishiga, adresatga munosabati, til birliklari (leksema, affiks, grammema, sintaktik qurilma) mustahkam bog'liq ekanligini ta'kidlaydi.

⁸ Апресян, Ю.Д. Лексическая семантика. - М., 1974. - С. 165.



MODERN PROBLEMS IN EDUCATION AND THEIR SCIENTIFIC SOLUTIONS

O'tgan asrlar davomida barcha sohalar kabi tilshunoslikda ham yangi nazariyalar, yangi yo'nalishlarni maydonga olib chiqildi va ularning mohiyatini ochib berish bo'yicha ulkan ishlar amalga oshirildi, hozir ham bunday ilmiy izlanishlar davom etib kelmoqda. Jumladan, XX asrning so'nggi choragidan boshlab til birliklarini antropotsentrik tadqiq tamoyillari asosida o'rganish dunyo tilshunosligining yetakchi vazifalariga aylandi. Dastlab, pragmatika nima, uning paydo bo'lish tarixi, kimlar tomonidan fanga olib kirilgani, uning o'rganilishi haqidagi turli qarashlarga to'xtalib o'tmoqchimiz. "Pragmatika (grek. pragma, pragmatos – ish, harakat, amaliy) – til belgilarining nutqdagi vazifasini tadqiq etuvchi tilshunoslikning alohida yo'nalishi".

Pragmatikaning manbasi CH.Pirs, U.Djems, D.Dyun, CH.Morris kabi taniqli faylasuf olimlar nomi bilan bog'liqdir. Chunki ularning ishlarida (XIX asrning oxiri va XX asrning boshlarida) belgilar sistemasi va lingvistik belgi funksionalligi xususidagi g'oyalar o'rtaqa tashlanib, semiotika haqidagi asosiy tushunchalar aniqlanadi, sintaktika, semantika va pragmatika o'rtasidagi o'zaro farqlar ko'rsatiladi.

Pragmatika yuqoridagi olimlarning g'oyalari asosida shakllangan bo'lsa, termin sifatida amerikalik olim Ch.Morris tomonidan ilmiy tilga olib kirildi. Pragmatika termini XX asrning 30-yillarida Ch.I.Morris tomonidan ilmiy muomalaga olib kirilgan. Keyinchalik ushbu termin bir necha olimlarning ilmiy asarlarida keng qo'llanilib, turli qarashlar vujudga keldi. Mana shu nazariyalar orqali XX asrning 60-70 yillarda tilshunoslikda pragmatik yo'nalish paydo bo'la boshladi. Lingvistik pragmatikaning shakllanishi yirik olim L.Vitgenshteynning falsafiy qarashlari bilan bog'liq bo'lib, aynan uning ishlarida pragmatika nazariy semiotik tadqiqotning mustaqil sohasi sifatida ko'rsatib o'tiladi.

Keyinchalik Yevropa va rus tilshunosligida lingvistik pragmatika xususidagi ilmiy ma'lumotlar keng berila boshladi hamda ilmiy izlanishlar olib borildi. Dastlab, Ch.Morris semiotikani uch yo'nalishga: semantika, sintaktika va pragmatika kabi yo'nalishlarga ajratgan bo'lsa, keyinchalik germaniyalik olim Georg Klaus, boshqa tilshunoslardan farqli ravishda, semiotik nuqtayi nazardan tilning to'rt yo'nalishini ko'rsatib o'tadi. Sintaktika belgi bilan belgi o'rtasidagi munosabatni o'rganadi. Semantika moddiy olamni aks ettiruvchi tushunchalar nuqtayi nazaridan belgi ma'nosini o'rganadi. Sigmatika belgi va predmet o'rtasidagi o'zaro munosabatni o'rganadi. Pragmatika esa belgining insonga ta'siri, uning fikrlash uslubiga, axloqiga, his-tuyg'usiga ta'sirini o'rganadi.

Pragmatika haqidagi qarashlar turlichadir. Jumladan, N.D.Arutyunova⁹, Yu.S.Stepanovlar pragmatikani badiiy kommunikatsiyaning subyektiv xususiyatlarini, matnda uni ijodkorlarining «men»ini ifodalanishi uslublarini o'rganuvchi nazariya sifatida qarashni taklif qilishdi.

Kiseleva esa pragmatikani so'zlovchining voqelikka, axborot mazmuniga va adresatga (tinglovchi, o'quvchi) bo'lgan munosabatining lisoniy birlik mazmunidan joy

⁹ Арутюнова Н.Д. Лингвистические проблемы референции. // Новое в зарубежной лингвистике. XIII. – М.: Прогресс, 1982.



MODERN PROBLEMS IN EDUCATION AND THEIR SCIENTIFIC SOLUTIONS

olgan ta'sirchanlik kuchini aniqlovchi fan (nutqiy ta'sir nazariyasi) sifatida tasavvur etuvchilar, deya ta'rifladi. J.Layonz tilshunoslarning 12-xalqaro kongressida pragmalingvistikaning predmetini aniqlash va uning ta'rifini berishga xarakat qildi: "Pragmatika tinglovchini uzatilayotgan axborotni xuddi so'zlovchi istaganidek qabul qilishga undash maqsadi uchun mos keladigan lisoniy birliklarning kommunikatsiyada qo'llanishini tavsiflaydi. Bu pragmatika lisoniy vositalarning shaxslararo muloqotdagi rolini aniqlash bilan shug'ullanadi".¹⁰

Demak, yuqoridagi ta'rif asosida lisoniy harakatdagi ko'zlanayotgan maqsad va unga erishish vositasi turibdi. Shuningdek, pragmatika yo'nalishini, ushbu termin bilan bilan bog'liq ishlarni tadqiq etuvchi fan tilshunoslikda pragmalingvistika deb atalib, ushbu fanga quyidagicha ta'rif beriladi: "Pragmalingvistika lisonning qo'llanishi bilan shug'ullanuvchi, nutqiy vaziyatda (kontekstda) faollashgan til tizimi haqidagi fan, nutq aktlarini tavsiflovchi nazariya, konversatsion (og'zaki nutq) tahlil nazariyasi, shaxslararo munosabatlarni ifodalovchi lisoniy vositalarni o'rganuvchi soha" dir.


Pragmatikaning umumiy ta'rifini Sh.Safarov quyidagicha umumlashtiradi: pragmatika tilshunoslikning alohida sohasi bo'lib, uning tadqiqot doirasiga muloqot jarayonida lisoniy birliklarni tanlab olish, ularni qo'llash hamda ushbu qo'llanishdagi birliklarning muloqot ishtirokchilariga ta'siri masalalari o'rganiladi. Ushbu qoidalar kommunikatsiya shart-sharoitlariga nisbatan, keng ma'nodagi kontekst sifatida o'rganiladi. Lisoniy hodisalarining bu yo'sindagi tahlili ularning qo'llanishidagi u yoki bu muhitda mavjud bo'lgan to'siqlar, chegaralanishlarni ham aniqlashga imkon beradi. Lingvistik tahlilning asosiy g'oyasi ham lisonning tabiatini uning amaliy faoliyatda qo'llanishiga nisbatan yoki boshqacha aytganda, bajarayotgan vazifasi doirasida aniqlashdir. Aynan vazifa (funksiya) tushunchasi lison tahliliga pragmalingvistik yondashuvning poydevoridir. Aminmizki, pragmalingvistikaning xuddi shu yo'nalishdagi taraqqiyoti nazariy tilshunoslik va amaliy kommunikatsiya o'rtasida mavjud bo'lib turgan «uzilish»larni biroz toraytiradi¹¹.

Pragmalingvistika haqidagi turli qarashlar tadqiqot predmetining keng miqyosda tasavvur etilishi, ushbu sohaning turli yo'nalishlarda taraqqiy etishiga olib keldi. Natijada, pragmalingvistikaning nutqiy akt nazariyasi, deyksis nazariyasi, diskurs nazariyasi, pragmasemantika, pragmastistik kabi o'z «ichki» sohalari yuzaga keldi. Bu sohalarning farqi, birinchi navbatda, pragmalingvistikaning umumiy predmetini alohida qismlarga ajratish va har bir qismni batafsil yoritilishi, o'rganilishida namoyon bo'ladi. Pragmalingvistika ta'rifi, uning predmetining tavsifi borasidagi fikrlar qanchalik turli-tuman bo'lmasin, tadqiqotchilar bu borada quyidagi asosiy g'oyalarda hamfikrdirlar:

- kommunikativ faoliyat tavsifining tayanch nuqtasi faoliyat tushunchasidir;
- lison muloqot ishtirokchilarining o'zaro munosabatini harakatga keltiruvchi vositadir;

¹⁰ XII xalqaro kongress ; 1977 Vena, J.Layonz nutqidan

¹¹ Сафаров Ш. Когнитив тилшунослик. – Жиззах: Сангзор, 2006.





- lisoniy faoliyat voqelanishi bevosita muloqot muhiti bilan bog‘liq hodisadir.

Bularning barchasi pragmalingvistikaning alohida sohalari uchun tadqiqot predmeti bo‘la oladi. Masalan, lisoniy muloqot tizimi nutq subyekti nuqtayi nazaridan tadqiq qilinganda, e’tibor nutqiy akt turlarining mazmuni, muloqot maqsadining o‘rni, tagma’noning ifoda topishi, pressupozitsiya va propozitsiya kabi hodisalarga qaratiladi. Biz ishimizda asosiy e’tiborni badiiy matnda tagma’noning ifodalanishiga qaratganimiz.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Hakimov.M.Pragmalingvistika asoslari.-Toshkent ,2020, 82-87-b.
2. Normatov U. Abdulla Qahhorni anglash mashaqqati.- Toshkent. „Universitet“, 1999.
- 3.F.f.n., dots. Primov. A.Актуальные проблемы языкоznания.-Toshkent, 2019.
- 4 . Сафаров Ш. Прагмалингвистика. Монография. – Тошкент: Ўзбекистон миллый энциклопедияси, 2008, -Б.69-70, Стариченок В.Д. Большой лингвистический словарь.-Ростов-на-Дону, Феникс, 2008, - C.523.
5. <https://kh-davron.uz>.
- 6.<https://oyina.uz>.

